



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 09 | pp. 28-37 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRISHNING AMALDAGI HOLATI HAMDA UNDAGI MUAMMOLAR TAHLILI



Sarmanov Orifjon Adiljonovich,

Bojxona instituti dotsenti v.b., i.f.f.d. (PhD),

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi,

ORCID: 0009-0003-5035-4368

e-mail: sarmanovorifjon@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bojxona to'lovlarini undirishning amaldagi holati hamda undagi muammolar tahlili bayon etilgan. Izlanishlar natijalari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: bojxona to'lovlari, import boji, eksport boji, aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona yig'implari va bojxona to'lovlari tahlili.

Annotation: The article presents an analysis of the current state of customs payments collection and identifies the key problems existing in this area. Based on the findings of the research, scientifically substantiated proposals and practical recommendations aimed at improving the customs payments collection mechanism are developed.

Keywords: customs payments, import duty, export duty, excise tax, value-added tax, customs fees, analysis of customs payments.

Аннотация: В статье представлен анализ текущего состояния взимания таможенных платежей и выявлены основные проблемы, существующие в данной сфере. По результатам проведенного исследования разработаны научно обоснованные предложения и практические рекомендации, направленные на совершенствование механизма взимания таможенных платежей.

Ключевые слова: таможенные платежи, импортная таможенная пошлина, экспортная таможенная пошлина, акцизный налог, налог на добавленную стоимость, таможенные сборы, анализ таможенных платежей.

Kirish

Jahon iqtisodiyotida tashqi savdo oqimlarining kengayishi, global ta'minot zanjirlarining murakkablashuvi hamda davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi bojxona organlari oldiga bir vaqtning o'zida ikki muhim vazifani – tashqi savdo uchun qulay shart-sharoit yaratish va davlatning fiskal manfaatlarini ishonchli ta'minlash vazifalarini qo'yimoqda. Shu jihatdan, bojxona to'lovlarini to'g'ri hisoblash, o'z vaqtida va to'liq undirish, to'lovlarning undiruvchanligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda bojxona ma'muriyatchiligida zamonaviy risklarni boshqarish va tahlil mexanizmlaridan foydalanish davlat moliyasini barqarorlashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda bojxona ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, inson omilini qisqartirish, bojxona nazoratini xavf darajasidan kelib chiqib tashkil etish, tovarlarni chiqarib yuborishdan keyingi nazorat va bojxona auditining rolini oshirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga ko'rsatiladigan xizmatlarni soddalashtirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyevning 2026-yil 26-yanvardagi O'zbekiston bojxona sohasi xodimlariga murojaatida sohani raqamlashtirish, ortiqcha byurokratiya va inson omilini kamaytirish hamda xalqaro standartlarni joriy etish bojxona tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan. Mazkur murojaatda amalga oshirilgan islohotlar natijasida bojxona rasmiylashtiruv vaqti 40 foizga qisqargani, bojxona deklaratsiyalarining 20 foizi inson omilisiz rasmiylashtirilayotgani, 2025-yilda esa 76,2 trln so'm bojxona to'lovlari undirilib, ushbu ko'rsatkich avvalgi yilga nisbatan 21 foizga oshgani hamda bojxona to'lovlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 25 foizga yetgani qayd etilgan [2].

Mazkur natijalar bojxona organlarining fiskal faoliyati davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bojxona to'lovlari hajmining ortishi faqat tashqi savdo aylanmasining kengayishi bilan emas, balki bojxona qiymatini to'g'ri aniqlash, tovarlarni TIF TN bo'yicha to'g'ri tasniflash, tarif stavkalari va imtiyozlarni asosli qo'llash, qarzdorlikni undirish, xavflarni boshqarish va bojxona auditining samaradorligi kabi qator omillar bilan bevosita bog'liq. Demak, bojxona to'lovlari tushumining mutlaq hajmini baholashning o'zi yetarli bo'lmay, ularning undirish darajasi, tarkibi, dinamikasi va unga ta'sir qiluvchi iqtisodiy hamda ma'muriy omillarni kompleks tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada bojxona to'lovlarini undirishning amaldagi holati hamda undagi muammolarni tadqiq etishda guruhlash, jadval va grafik, sintez hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Adabiyotlar sharhi

Ushbu yo'nalishdagi islohotlarning yangi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrdagi **"Bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi PF-250-son Farmoni bilan belgilandi. Farmon davlat bojxona xizmati organlari faoliyatida nazorat, tahlil va xavflarni baholash tizimlarining zamonaviy shakllaridan foydalanish ko'lamini yanada kengaytirish hamda tashqi savdoni erkinlashtirish maqsadida qabul qilingan [1]. Farmonda 2027-yilga qadar tovarlarni bevosita chegarada eksport va importga rasmiylashtirish hajmini ikki barobarga oshirish, bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash asosida tovarlarni erkin muomalaga chiqarish hajmini 1,5 barobarga oshirish, vakolatli iqtisodiy operatorlar sonini 200 tadan ko'paytirish hamda bojxona auditi qamrovini 30 foizga yetkazish kabi aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan.

Ayniqsa, mazkur Farmonda "Bojxona to'lovlari va yig'imlarini undirish tartiblarini soddalashtirish" alohida yo'nalish sifatida ajratilgani mazkur masalaning iqtisodiy va

amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Xususan, 2026-yil 1-iyundan tadbirkorlik subyektlariga bojxona bojini 120 kungacha kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatining yaratilishi, shuningdek, bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlashda xavflarni boshqarish tizimi natijalaridan kelib chiqib pasaytirilgan miqdordagi ta‘minotni qo‘llash mexanizmining joriy etilishi bojxona to‘lovlarini undirish tizimiga riskka asoslangan differensial yondashuv kirib kelayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bojxona auditi davomida qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarini so‘zsiz tartibda undirish bo‘yicha inkasso topshiriqnomasini yuborish amaliyotining belgilanishi undiruvchanlikni oshirishning institutsional mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan [1].

Mazkur islohotlar xalqaro bojxona standartlarining asosiy tamoyillari bilan hamohangdir. Xususan, Jahon savdo tashkilotining Savdoni soddalashtirish to‘g‘risidagi bitimi (Trade Facilitation Agreement) bojxona to‘lovlari va tashqi savdo tartibotlarida shaffoflik, elektron to‘lov imkoniyati, tovarlarni kelib kelishidan oldin qayta ishlash, bojxona to‘lovlari yakuniy miqdori aniqlanishidan oldin tovarlarni tegishli kafolat asosida chiqarib yuborish kabi zamonaviy mexanizmlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bitimning 6-moddasida import va eksport bilan bog‘liq yig‘im va to‘lovlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning ochiqligi, ularni davriy qayta ko‘rib chiqish va bojxona rasmiylashtiruvi uchun undiriladigan yig‘imlarni ko‘rsatilayotgan xizmatning taxminiy qiymati bilan chegaralash tamoyillari belgilangan bo‘lsa, 7-moddada bojlar, soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlarni elektron shaklda to‘lash imkoniyatini yaratish nazarda tutilgan [3].

Shuningdek, Jahon bojxona tashkilotining Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi qayta ko‘rib chiqilgan Kioto konvensiyasi zamonaviy bojxona ma‘muriyatchiligining asosiy tamoyillari sifatida bojxona tartibotlarining shaffofligi va oldindan bashorat qilinishi, axborot texnologiyalaridan maksimal foydalanish, zarur darajadagi minimal bojxona nazorati, xavflarni boshqarish hamda auditga asoslangan nazoratni belgilaydi [4]. Konvensiyaning bojxona nazoratiga oid standartlarida bojxona organlari nazorat obyektlarini tanlash va tekshiruv darajasini belgilashda xavflarni boshqarish hamda xavf tahlilidan foydalanishi lozimligi qayd etilgan. Ushbu xalqaro yondashuvning mazmuni bojxona nazoratini barcha operatsiyalarga bir xil darajada qo‘llashdan ko‘ra, fiskal xavfi yuqori bo‘lgan operatsiyalarni aniqlash va nazorat resurslarini aynan ularga yo‘naltirish orqali bir vaqtning o‘zida bojxona to‘lovlarining to‘liq undirilishi va tashqi savdo jarayonlarining tezkorligini ta‘minlashdan iborat.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda bojxona to‘lovlarini undirishning amaldagi holatini faqat tushumlar dinamikasi nuqtai nazaridan emas, balki ularning shakllanish manbalari, tarkibiy o‘zgarishlari, undiruvchanlik darajasi, qo‘shimcha hisoblangan to‘lovlar, imtiyozlardan foydalanish, qarzдорlik, bojxona qiymati va tovarlar tasnifi bilan bog‘liq fiskal xavflar hamda bojxona auditi natijalari bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bojxona tartibotlarini soddalashtirish bilan bir vaqtda davlat budjeti manfaatlarini ta‘minlash zarurati savdoni yengillashtirish va fiskal samaradorlik o‘rtasidagi optimal muvozanatni shakllantirish masalasini dolzarb etmoqda.

Bojxona to‘lovlarining iqtisodiy mohiyati, tarkibi va davlat moliyasi tizimidagi o‘rni yuzasidan iqtisodchi hamda huquqshunos olimlar tomonidan turlicha ilmiy yondashuvlar

shakllantirilgan. Xususan, V.Yu. Jukovets bojxona to'lovlarini tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish bilan bog'liq holda shaxs tomonidan bojxona organlariga majburiy ravishda to'lanishi lozim bo'lgan barcha to'lovlar majmui sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuvda bojxona to'lovlarining asosiy belgisi ularning majburiyligi va tovarlarning bojxona chegarasi orqali harakatlanishi bilan bevosita bog'liqligi sifatida namoyon bo'ladi [5].

O.Yu. Bakayeva esa mazkur tushunchaga kengroq moliyaviy-huquqiy nuqtayi nazardan yondashib, bojxona to'lovlarini bojxona organlari tomonidan belgilangan tartibda undiriladigan, davlat budjetining soliq va soliqsiz daromadlarini shakllantiruvchi majburiy to'lovlar sifatida tavsiflaydi. Ushbu qarash bojxona to'lovlarining nafaqat tashqi savdo operatsiyalari bilan bog'liq majburiy to'lov ekanini, balki ularning davlat budjeti daromadlarini shakllantiruvchi fiskal vosita sifatidagi ahamiyatini ham ochib beradi [6].

V.G. Svinuxov bojxona to'lovlarini tovarlarni olib kirish yoki olib chiqish jarayonida bojxona organlari tomonidan undiriladigan majburiy to'lovlar sifatida ko'rib, ularning to'lanishini tegishli bojxona tartib-taomillarini qo'llashning zarur sharti sifatida baholaydi. Olimning yondashuvida bojxona to'lovlarining fiskal mazmuni bilan bir qatorda bojxona rasmiylashtiruvi va tartibga solish mexanizmidagi protsessual ahamiyati ham alohida o'rin egallaydi [7].

S.V. Dvoryanov bojxona to'lovlarining iqtisodiy va huquqiy tabiatini farqlash zarurligiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, bojxona to'lovlari tarkibida qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz kabi soliq xususiyatiga ega to'lovlar bilan bir qatorda bojxona bojlari va bojxona yig'implari kabi soliqsiz majburiy to'lovlar ham mavjud. Ushbu to'lovlarni birlashtiruvchi umumiy jihat ularning, asosan, tovar va transport vositalarining bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi bilan bog'liq holda undirilishidir. Shu bilan birga, muallif bojxona to'lovlarining budjet daromadlarini shakllantirish, tashqi savdoni tartibga solish va ayrim bojxona xizmatlari bilan bog'liq xarajatlarni qoplash funksiyalarini ajratib ko'rsatadi [8].

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, olimlarning aksariyati bojxona to'lovlarining uchta asosiy xususiyatiga urg'u beradi: birinchidan, ularning majburiy xarakterga egaligi; ikkinchidan, bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tish yoki bojxona operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liqligi; uchinchidan, davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi fiskal ahamiyati. Biroq ayrim ta'riflarda bojxona to'lovlarining tashqi savdoni iqtisodiy tartibga solish, milliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qilish va bojxona ma'muriyatchiligi samaradorligini ta'minlash kabi funksiyalari yetarli darajada qamrab olinmagan.

T.N.Pardayev fikricha, "Bojxona to'lovlari – bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovar-moddiy boyliklar uchun Davlat byudjetining daromadlar qismi uchun undiriladigan to'lovlardir" [4].


Fikrimizcha, bojxona to'lovlari tushunchasiga faqat ularning majburiyligi yoki davlat budjetiga undirilishi nuqtayi nazaridan yondashish yetarli emas. Shu bois, "bojxona to'lovlari – tovarlarning bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi va tegishli bojxona operatsiyalarining amalga oshirilishi munosabati bilan qonunchilikda belgilangan tartibda hisoblanadigan va bojxona organlari tomonidan undiriladigan, davlat budjeti daromadlarini shakllantirish bilan bir qatorda tashqi savdoni iqtisodiy tartibga solish,

fiskal manfaatlarni himoya qilish va bojxona siyosatini amalga oshirishga xizmat qiluvchi majburiy to'lovlar majmui", deb ta'riflash maqsadga muvofiq.

Mazkur mualliflik ta'rifining avvalgi yondashuvlardan farqli jihati shundaki, unda bojxona to'lovlarining bir vaqtning o'zida fiskal, tartibga soluvchi, himoya qiluvchi va ma'muriy funksiyalari yagona iqtisodiy kategoriya doirasida mujassamlashtirilgan. Bu esa bojxona to'lovlarini faqat budjetga tushadigan mablag' sifatida emas, balki tashqi savdo va bojxona ma'muriyatchiligiga ta'sir ko'rsatuvchi kompleks iqtisodiy vosita sifatida baholash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar


Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda bojxona to'lovlari muhim fiskal manbalardan biri sifatida namoyon bo'lib, ularning jami budjet tushumlaridagi ulushi so'nggi yillarda 20–25 foiz atrofida shakllanmoqda. Mazkur ko'rsatkichning keyingi besh yil davomida izchil o'sib borayotgani bojxona organlarining fiskal faoliyati davlat moliyasini ta'minlashda tobora muhim o'rin egallayotganini ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. 2016-2025-yillarda bojxona to'lovlari tushumining davlat budjeti daromadlar qismidagi ulushi (foizda)

Manba: Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Bojxona organlarining fiskal faoliyatini takomillashtirish, to'lovlarni hisoblash va undirish jarayonlariga zamonaviy ma'muriy hamda raqamli mexanizmlarni keng joriy etish natijasida budjetga yo'naltirilayotgan bojxona tushumlari hajmida barqaror o'sish kuzatilmoqda. Shu bilan birga, bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlarni qo'llash mexanizmlari ham bosqichma-bosqich takomillashtirilib, ularni boshqarishning institutsional asoslari mustahkamlanmoqda. Jumladan, 2025-yil yakunlari bo'yicha bojxona organlari tomonidan jami 136,0 trln so'm miqdorida bojxona to'lovlari hisoblangan bo'lib, bu hisoblangan bojxona to'lovlarining umumiy hajmini, ya'ni 100 foizini tashkil etadi (3-rasm).



3-rasm. Bojxona organlari tomonidan 2021-2025-yillarda hisoblangan, undirilgan va imtiyoz berilgan bojxona to'lovlari (trln so'mda)

Manba: Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, 2021–2025-yillarda bojxona organlari tomonidan davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlarning tarkibiy dinamikasi ularning alohida turlari bo'yicha sezilarli o'zgarishlar yuz bergan. Xususan, 2025-yilda jami bojxona tushumlarining eng katta qismi qo'shilgan qiymat solig'i hissasiga to'g'ri kelib, uning ulushi 76,5 foizni tashkil etgan. Shu davrda import bojxona bojining ulushi 15,4 foiz, aksiz solig'iniki 2,4 foiz, eksport bojxona bojining ulushi 0,2 foiz, bojxona yig'implari va boshqa to'lovlarning ulushi esa 5,7 foiz darajasida shakllangan.

Taqqoslash uchun, 2021-yilda mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 82,1 foiz, 14,3 foiz, 0,9 foiz va 2,6 foizni tashkil etgan. Demak, tahlil qilinayotgan besh yillik davrda bojxona to'lovlari tarkibida qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi 5,6 foiz punktga qisqargan, import bojxona bojining ulushi esa 1,1 foiz punktga oshgan. Shu bilan birga, aksiz solig'ining ulushi 1,5 foiz punktga, bojxona yig'implari va boshqa to'lovlarning ulushi esa 3,1 foiz punktga ko'paygan (3-jadval).

3-jadval

Bojxona organlari tomonidan 2021-2025-yillar Davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari tarkibining o'zgarishi, foizda

Bojxona to'lovlari turlari	2021	2022	2023	2024	2025
Qo'shilgan qiymat solig'i	82,1	84,1	80,0	77,7	76,5
Import bojxona boji	14,3	12,5	16,0	15,9	15,2
Eksport bojxona boji					0,2
Aksiz solig'i	0,9	0,7	0,1	2,1	2,4
Bojxona yig'implari va boshqa to'lovlar	2,6	2,7	3,9	4,3	5,7
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Mazkur tarkibiy siljishlar bojxona tushumlarining shakllanishida qo‘shilgan qiymat solig‘i hanuz yetakchi fiskal manba bo‘lib qolayotganini, biroq boshqa bojxona to‘lovlari turlarining jami tushumlardagi hissasi bosqichma-bosqich ortib borayotganini ko‘rsatadi. Bu esa bojxona organlari fiskal faoliyatida daromad manbalarining nisbatan diversifikatsiyalashayotganini ifodalaydi.

Eksport bojlariidan foydalanish xalqaro savdo qoidalariga mutlaq zid bo‘lgan vosita hisoblanmaydi. Jahon savdo tashkiloti doirasidagi GATT qoidalarida eksportga nisbatan boj va soliqlarni qo‘llash umumiy tarzda taqiqlanmagan, biroq bunday choralar eng qulay shartlar rejimi, shaffoflik va savdo qoidalarini oldindan e‘lon qilish talablariga rioya etgan holda amalga oshirilishi lozim. Xususan, GATTning I moddasi import va eksport bilan bog‘liq boj hamda boshqa to‘lovlarni mamlakatlar bo‘yicha kamsitmasdan qo‘llashni nazarda tutsa, X moddasi boj stavkalari, eksport cheklovlari va ularni qo‘llash tartiblarini oldindan ochiq e‘lon qilish talabini belgilaydi. JSTning a‘zolik bo‘yicha qo‘llanmasida eksport bojlari davlat daromadlarini shakllantirish, ichki bozorda ayrim tovarlar taqchilligini yumshatish yoki xomashyoni mamlakat ichida chuqurroq qayta ishlashni rag‘batlantirish maqsadlarida qo‘llanishi mumkinligi qayd etilgan. Shu bilan birga, JSTga a‘zo bo‘lish jarayonida ayrim davlatlar eksport bojlari bo‘yicha alohida majburiyatlarni ham qabul qilishi mumkin [10].

Mazkur xalqaro yondashuv O‘zbekistonda eksport bojlarini umumiy fiskal vosita sifatida emas, balki aniq iqtisodiy mezonlarga asoslangan selektiv tartibga solish instrumenti sifatida takomillashtirish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Bunda eksport boji qo‘llaniladigan tovarlar ro‘yxatini ichki iste‘mol hajmi, mahalliy ishlab chiqarish va qayta ishlash quvvatlari, eksportning ishlab chiqarishga nisbati, ichki va jahon narxlari o‘rtasidagi tafovut hamda strategik xomashyo ta‘minoti kabi ko‘rsatkichlar asosida shakllantirish taklif etiladi. Stavkalarni davriy ravishda qayta ko‘rib chiqish, hisoblash metodikasini oldindan e‘lon qilish va bozor sharoiti o‘zgarganda bojni pasaytirish yoki bekor qilish mexanizmini belgilash eksport bojining asossiz proteksionistik vositaga aylanishining oldini oladi. Shu sababli ushbu taklifni O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lish jarayonida qabul qilinadigan individual majburiyatlar bilan o‘zaro muvofiqlashtirgan holda joriy etish zarur.

Xorijiy amaliyot eksport bojlarini faqat tovar qiymatiga nisbatan foizda belgilanadigan advalor stavka bilan cheklash shart emasligini ko‘rsatadi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasining amaldagi eksport tariflari tizimida boj stavkalari tovarning bojxona qiymatiga nisbatan foizda, shuningdek rubl, yevro yoki AQSH dollarida fizik birlikka nisbatan belgilanishi yoxud maxsus formula asosida hisoblanishi mumkin. Rossiya bojxona organlarining rasmiy tushuntirishlarida eksport qilinadigan tovarlarga nisbatan advalor, xos va kombinatsiyalashgan stavkalar qo‘llanilishi bevosita qayd etilgan. Masalan, ayrim don mahsulotlari uchun eksport boji bir tonnaga nisbatan hisoblanadigan formula asosida aniqlanadi. Bu boj stavkasini jahon narxlarining o‘zgarishiga moslashtirish hamda qiymat va miqdor omillarini turlicha hisobga olish imkonini beradi [11].

Ushbu tajribadan kelib chiqib, O‘zbekistonda ham eksport boji qo‘llaniladigan tovarlarning iqtisodiy xususiyatiga qarab stavka turini differensiallashtirish maqsadga muvofiq. Jumladan, fizik xususiyatlari barqaror va eksport hajmini miqdor jihatdan

tartibga solish muhim bo'lgan xomashyo tovarlariga xos stavka, ya'ni tonna, kilogramm, kub metr yoki boshqa o'lchov birligiga nisbatan qat'iy miqdordagi boj belgilanishi mumkin. Narx va miqdor omillarini bir vaqtda hisobga olish talab etiladigan tovarlarga esa aralash stavka, masalan, "bojxona qiymatining X foizi, biroq bir tonna uchun Y summadan kam bo'lmagan miqdorda" shaklidagi mexanizmni qo'llash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Bunday yondashuv tovar narxi pasayganda bojning tartibga soluvchi ta'siri keskin kamayib ketishining oldini oladi, yuqori narxlar sharoitida esa advalor komponent orqali davlatning fiskal manfaatini saqlab qolish imkonini beradi. Bunda stavkalarni qo'llash tartibi va mezonlarining oldindan ochiq e'lon qilinishi JSTning shaffoflik va kamsitmaslik prinsiplariga muvofiqligini ta'minlashning muhim sharti bo'ladi.

Bojxona to'lovlarini hisoblash bazasining xolisligini ta'minlash bo'yicha eng muhim xalqaro standart JSTning GATT 1994 VII moddasini qo'llash to'g'risidagi Bitimi — Bojxona qiymati to'g'risidagi bitimda belgilangan. Mazkur Bitimga ko'ra import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashning birlamchi va asosiy usuli bitim qiymati, ya'ni tovar uchun amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narx hisoblanadi. Zarur hollarda ushbu narx Bitimning 8-moddasida nazarda tutilgan xarajatlar bilan tuzatiladi. Faqat 1-modda shartlari bajarilmagan yoki bitim qiymatini qo'llashning imkoni bo'lmagan hollardagina keyingi baholash usullariga o'tiladi. JST qoidalari 1–7-moddalarda nazarda tutilgan usullarni, ayrim istisnolardan tashqari, izchil ketma-ketlikda qo'llashni talab qiladi [12].

Shuningdek, GATTning VII moddasi bojxona qiymatini ixtiyoriy yoki soxta qiymatlar asosida belgilashga yo'l qo'ymaslik prinsipini mustahkamlaydi. Shundan kelib chiqib, bojxona organlarining axborot bazalarida mavjud narx ko'rsatkichlaridan eng yuqorisini avtomatik tarzda tanlash va uni deklarant tomonidan taqdim etilgan bitim qiymatining o'rniga bevosita qo'llash JST metodologiyasining mazmuniga mos kelmaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Ma'lumotlar bazasidagi narxlar bojxona qiymatini avtomatik almashtiruvchi baza emas, balki xavfni aniqlash, qo'shimcha hujjat talab qilish va deklaratsiyaning ishonchliligini tekshirish indikator sifatida qo'llanishi maqsadga muvofiq. Shu sababli O'zbekistonda bitim qiymatini rad etish sabablarini axborot tizimida majburiy asoslash, keyingi usulga o'tishning huquqiy shartlarini elektron nazorat qilish hamda muqobil narxlardan eng yuqorisini mexanik ravishda tanlashni cheklash bojxona qiymatini aniqlashning xolisligi bilan birga bojxona to'lovlari hisob-kitobining aniqligini ham oshiradi.

Xulosa va takliflar

Bojxona to'lovlari undiruvchanligini oshirish, ularni hisoblash mexanizmining xolisligini ta'minlash hamda tashqi savdoni tarif orqali tartibga solish samaradorligini kuchaytirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

birinchidan, milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish, ichki bozorda strategik ahamiyatga ega ayrim tovarlarning yetarli taklifini ta'minlash hamda ularning nazoratsiz eksport qilinishidan kelib chiqadigan iqtisodiy xavflarni kamaytirish maqsadida eksport bojarini qo'llash mexanizmini takomillashtirish;

ikkinchidan, eksport bo'jlarini hisoblashning moslashuvchanligini oshirish maqsadida amaldagi advalor stavkalar bilan bir qatorda ayrim tovar guruhlari bo'yicha xos va aralash boj stavkalarini joriy etish;

uchinchidan, bojxona to'lovlarini hisoblash bazasining xolisligi va aniqligini oshirish maqsadida import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashda bitim qiymati usulining ustuvorligini amalda to'liq ta'minlash;

to'rtinchidan, xo'jalik yurituvchi subyektlarning aylanma mablag'lariga tushadigan moliyaviy yukni kamaytirish hamda bojxona va soliq ma'muriyatchiligi o'rtasidagi o'zaro integratsiyani kuchaytirish maqsadida korxonalarning import operatsiyalari bo'yicha hisoblanadigan qo'shilgan qiymat solig'ini, birinchi navbatda, soliq organlarining axborot tizimlarida mazkur korxona bo'yicha hisobga olingan va foydalanish mumkin bo'lgan QQS summalari hisobidan qoplash, faqat yetishmagan qismini bojxona depozitidagi mablag'lar hisobidan undirish mexanizmini joriy etish taklif etiladi. Buning uchun bojxona va soliq organlarining axborot tizimlarini real vaqt rejimida integratsiya qilish, QQS qoldig'ining haqiqiyliги va foydalanish imkoniyatini avtomatik tekshirish, ikki karra hisobga olishning oldini olish hamda operatsiyaning elektron izini saqlash mexanizmini yaratish zarur. Bunday yondashuv importyor korxonalarning likvidligini saqlash, ortiqcha mablag'larni vaqtincha bojxona depozitida muzlatib qo'yilishining oldini olish va to'lovlarni ma'muriy boshqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan chora-tadbirlar bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini faqat fiskal tushumlarni ko'paytirishga yo'naltirish bilan cheklanmay, uning iqtisodiy asoslanganligi, hisoblash bazasining xolisligi, tarif vositalarining moslashuvchanligi va bojxona-soliq ma'muriyatchiligining o'zaro uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan. Eksport bo'jlarida differensial, xos va aralash stavkalardan foydalanish tashqi savdoni yanada aniq iqtisodiy tartibga solish imkonini bersa, bojxona qiymatini aniqlashda bitim qiymati usulining real ustuvorligini ta'minlash import operatsiyalarida to'lov bazasining haqqoniyligini oshiradi. Import QQSini soliq va bojxona tizimlaridagi mavjud mablag'larni o'zaro hisobga olish asosida undirish esa tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy yukni optimallashtirish bilan bir qatorda bojxona to'lovlari ma'muriyatchiligining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrda PF-250-son "Bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. "O'zbekiston bojxona sohasi xodimlariga", 2026-yil 26-yanvar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

3. World Trade Organization. Agreement on Trade Facilitation, Articles 6–7.

4. World Customs Organization. International Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures (Revised Kyoto Convention).

5. Жуковец В.Ю. *Таможенное право в вопросах и ответах*. — М.: ЭКМО, 2005. — 219 с.

6. Бакаева О.Ю. *Правовое регулирование финансовой деятельности таможенных органов Российской Федерации*: дис. ... д-ра юрид. наук. — Саратов, 2005. — 482 с.
7. Свинухов В.Г. *Таможенное дело*. — М., 2005. — С. 251. Bibliografik ma'lumot ushbu manbaga tayangan ilmiy maqolada ham qayd etilgan.
8. Дворянов С.В. Таможенные платежи: понятие и состав // *Российское предпринимательство*. — 2007. — Т. 8. — № 5. — С. 90–94.
9. Pardayev T.N. O'zbekistonda bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish.: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: 2025-y. — 86 b.
10. World Trade Organization. Handbook on Accession to the WTO. Chapter 5: Substance of Accession Negotiations. Export Regulation. Geneva: WTO. https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/cbt_course_e/c5s2p8_e.htm
11. О новых ставках и базе для исчисления таможенных сборов за совершение таможенных операций, связанных с выпуском товаров. <https://cet.customs.gov.ru/document/text/245785>
12. World Trade Organization. *Agreement on Implementation of Article VII of the General Agreement on Tariffs and Trade 1994*, Articles 1–8. Geneva: WTO. https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/ai17_e/ai17_e.htm
13. Adiljonovich, S. O. (2025). O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARI TUSHUMINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRETUVCHI OMILLAR TAHLILI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(03), 249-256.
14. Pardayev, T., Sarmanov, O., & Kamalov, S. (2022). GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY BOJ TARIFI TIZIMINI XALQARO TALABLARGA UNIFIKATSIYALASH. *Economics and Innovative Technologies*, 10(6), 425-433.
15. Nosirovich, T. P., Rixsibayevich, A. S., & Adiljonovich, S. O. (2021). Prospects for increasing the effectiveness of the application of privileges and preferences from customs duties. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(7), 69-76.
16. SARMANOV, O. A., & FARXODOV, F. F. BOJXONA YIG'IMLARINI HISOBLASH VA UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH Tulkin Nasirovich PARDAYEV.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

